

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**3-BOSQICH "A" GURUH TALABASI
QAMBAROVA SAODATNING**

GAPLARNI BO'LAKLARGA AJRATISH

MAVZUSIDAGI

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR: F.F.D. D.NABIYEVA

ANDIJON 2011Y.

I. Kirish

Asosiy qism

- 1. Gaplarni bo`laklarga ajratish tamoyillari**
- 2. Aniqlovchining turlari**
- 3. Aniqlovchining gap strukturasidagi ishtiroki**

Xulosa

Gaplarni bo'laklarga ajratish tamoyillari

Gap bo'laklari gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyadir. So'zlar gapda grammatik-semantik jihatdan mustaqil funksiya ifodalab (sintezlanib) muayyan so'roqqa javob bo'lib keandagina, gap bo'lagi sanaladi. So'zlarning biror bo'lak vazifasida kelishi yoki kela olmasligini gap qurilishining sintaktik qonunlari belgilaydi.

Masalan, Shoir o'zining ilhomini sevimli xalqidan oladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro obro'si nihoyat darajada oshib ketdi.

Birinci gapda oltita so'z ishtirok etgan bo'lib, ularning har biri mustaqil bo'lak vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa o'nta so'z oltita bo'lak vazifasida qo'llangan.

Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap bo'lagining gap orasidagi munosabat qism bilan butun orasidagi munosabatdek bo'lib, dealektik xarakterga ega: butunsiz qism, qismsiz bunun mavjud bo'lmaydi.

Gap bo'laklari mustaqil so'zlar va so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkum so'zlar gapda ma'lm bir tipik sintaktik funksiyada qo'llaniladi. Fe'ning kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi shu holat bilan izohlanadi. Biroq bundan so'z turkumlari va gap bo'laklari tushunchasi bir xil hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi. So'z va so'z birikmalarining mohiyati gap sostavida bajargan vazifasiga qarab belgilanadi. Muayyan bir so'z formasining o'zi boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatiga ko'ra gapning har xil bo'lagi vazifasida kela oladi.

So'z turkumlari leksik-grammatik belgilar asosida aniqlanadi. Gap bo'laklari esa funksional jihatdan ajratiladi. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya sifatida, so'z turkumlari leksik birlik sifatida o'rganiladi. So'zlar kontekstdan tashqarida ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, lekin gapda, uning bo'lagi sifatida, faqat bitta sintaktik funksiya bajaradi.

Gap bo'laklarini o'rganish gapning leksik-semantik strukturasini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki gapni bo'laklarga ajratish ularning ifoda material iva ma'nolarini o'rganishni ham taqozo qiladi. Gapning har bir bo'lagi ifoda qilinayotgan hukmning butunligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Gap bo'laklari, asosan, quyidagicha ifodalanadi:

1. So'zning sintetik formasidagi so'zlar bilan:

Olmaotalik mehmonlar Mirzacho'lga borishdi gapida ikkita soda, ikkita qo'shma so'z ishtirok etgan bo'lib, to'rtta bo'lak mavjud (aniqlovchi+ega+hol+kesim)

2. So'zning analitik formasi bilan. Bular quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) mustaqil so'z+to'liqsiz fe'l: Biz qishloqqa borgan edik.

b) mustaqil so'z+predikativ modal so'zlar:

Biz zavod-fabrikalarga xom ashyo yetkazib berishimiz zarur.

Bilish uchun o'qish kerak, izlanish kerak.

v) mustaqil so'z+ko'makchi: *Men men dunyoga kelgan kundayoq vatanim deb seni tanidim.*

g) mustaqil so'z+ko'makchi fe'llar:

Bizni mahalladagilar ham bilib qolishdi.

d) mustaqil so'z+iborat, demak tipidagi so'zlar: Komsomolning tarixi safarbarlikdan iborat.

e) mustaqil so'z+yuklama: *Yorim borgan joylarga, men ham bormay qolmayman.*

j) mustaqil so'z+yordamchi so'z bor, yo'q so'zlari:

Qirg'og'inda kaklik bo'lib sayragim sayragim bor-sayragim bor.

Faqat senga ochganim yo'q, ochganim yo'q yurak zorin.

3. Juft va takroriy so'zlar bilan:

Men bu vaqtlarda hayotning past-balandini bilmagan, oq-qorani tanimagan bir yigitcha edim.

4. Murakkab terminlar, murakkab so'zlar, frazeologik birikmalar bilan:

Bu kishi O'zbekiston Fanlar akademiyasida ishlaydi.

Salimboyvachcha o'zining qordan qutilib, yomg'irga tutilganini angladi.

5. Ayrim konstruksiyalar bilan. Bular, asosan quyidagilar:

a. bir umumiy qo'shimcha bilan boshqariladigan birikmalar: *Qo'sh og'izli miltiq hamisha shofyorda turar edi.*

b. son-numerativ so'zlardan tzilgan birikmalar: *A. Navoiy bir ming to'rt yuz qirq birinchi yilda Hirotda tug'ilgan;*

c. birga qo'llanishi zarur bo'lgan aniqlovchi+aniqlanmish modelidagi birikmalar: *Botir baland ruh va tetiq qadam bilan jo'nadi.*

d. ko'p vaqt sifat, sifatdosh+bor, yo'q kabi so'zlar gapda ot yoki otlashgan so'zdan keyin kelib, shu so'z (ot) bilan birga bita bo'lak vazifasida keladi, bir butn holda ajratiladi:

Nashriyotimizda qalami o'tkir, yuqori saviyali yoshlar ishlaydi.

Insofi yo'q yigit ekansiz.

Aqli bor yigit har bir yaxshi ishning tashabbuskori bo'ladi.

6. Izofali birikmalar, qaratqichli birikmalar bilan: sukut - alomati rizo ekan. *Bu yigit – Rustamjonning o'rtog'i.*

Gapni bo'laklarga ajratishda so'zlarning gapdagi funksiyasi, boshqa so'zlar bilan mnosabati, grammatik formasi kabi hodisalar hisobga olinadi. Bunda intonatsiyaning ham roli katta. Masalan, *Rais kolxoz tarixidan gapirib ketdi.* Gapirib ketdi – kesim, biroq gapirib so'zidan oldin pauza qilinishi uni (gapirib) hol, keyingi so'zni (ketdi) kesim holatiga tushiradi.

Yangi choy damladi gapida ham ikki holat bor:

a) logik urg'u yangi so'ziga tushsa, hol;

b) choy so'ziga tushsa, yangi so'zi aniqlovchi bo'ladi. Bunga yangi va choy so'zlari bir butun intonatsiya bilan aytiladi.

Gap bo'laklarini tuzilishiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin: soda bo'lak, sostavli bo'lak, murakkab bo'lak. Sintetik formadagi so'z bilan ifodalanib bir soda tushuncha anglatadigan bo'lak sodda bo'lak deyiladi. Masalan, Otquloqning ildizidan bo'yoq olinadi. Yo'lchi saharlab Xo'jakentga jo'nadi gaplaridagi bo'laklar sodda bo'laklardir. Analitik formadagi so'z bilan ifodalangan bo'lak sostavli bo'lak deyiladi. Sostavli bo'lak birdan komponentlardan tuziladi. Unda bir komponent mustaqil bo'lib, bo'lakning asosiy ma'nosi shu komponent orqali ifodalanadi. Yordamchi komponent leksik ma'no ifodalay olmaydi. Yetakchi komponentning ma'nosiga har xil grammatik ma'nolar orttirish, yetakchi komponentni grammatik jihatdan shakllantirish, uning boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqasini ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi.

Sostavli bo'lak material jihatdan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. mustaqil so'z+to'liqsiz fe'l: Masalan: *Kelgan yigit agronom ekan.*
2. mustaqil so'z+predikativ-modal so'z: *Ravshan qurilishga borishi kerak.*
3. mustaqil so'z+ko'makchi fe'l: *Anvar talaba bo'ldi kabi.*

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanishidan tuzilib, murakkab tushunchani anglatuvchi birikmalar bilan ifodalangan bo'lak murakkab bo'lak deyiladi. Murakkab bo'lakning materialini murakkab so'zlar, frazeologik birikmalar, gapda yaxlit holda qo'llanadigan ajralmas so'z birikmalaritashkil qiladi. Murakkab bo'lakning material jihatdan ko'rinishi:

1. *Partiya, davlat, hukumat, tashkilot nomlari:* Milliy tiklanish partiyasi, Andijon viloyati partiya raisi.
2. *Ilmiy siyosiy va madaniy muassasa nomlari:* Andijon davlat universiteti, Navoiy teatri, O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi kabi.
3. *Kitob, gazeta, jurnal nomlari:* «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, «Hozirgi o'zbek adabiy tili»
4. *Turli geografik nomlar:* Shimoliy muz okeani, O'rta Osiyo, O'rta Sharq, Orol dengizi kabi.
5. Har ikkala komponenti ham holi o'z leksik ma'nolarini butunlay yo'qotmagan, biroq bir butun holdagina gapning murakkab bo'lagi funksiyasida keladigan borib kelmoq, topib olmoq, sotib olmoq, kelib ketmoq tipidagi murakkab fe'llar.
6. *Havo rang, kul rang, shisha rang, och rang* kabi murakkab sifatlar.

7. *O'n besh, bir yuz ellik, bir kam sakson, bir ming to'qqiz yuz yetmish to'rtinchi tipidagi murakkab sonlar; har kim, har nima har bir, hech bir, hech narsa, ba'zi bir, qaysi bir, ana o'sha mana shu kabi murakkab olmoshlar.*

8. *Har vaqt, har zamon, har qachon, har dam, har xil, bir zamon, bir zum, bir nafas, hech vaqt, hech qachon, hamma vaqt, o'tgan kuni, shu zahoti, tunov kuni, kuni kecha, shu yerda kabi har birini alohida qo'llash mumkin bo'lgan ikkita so'zning birikib, harakatning bitta belgisini ifodalaydigan murakkab ravishlar.*

9. *Kapalagi uchib ketmoq, tegirmonga tushsa butun chiqadi, boshini olib ketmoq, yostig'ini quritmoq kabi frazeologik birikmalar odatda, erkin so'z birikmalari gapda ajralib turadi, ularning komponentlari alohida bo'lak funksiyasida shakllanadi, gap mazmuniga nisbatan mustaqil bo'ladi. Masalan, ko'pincha atributiv birikmaning tobe komponenti aniqlovchi, hokim komponenti boshqa bo'lak, relyativ birikmaning tobe komponenti hol, hokim komponenti boshqa bo'lak funksiyasida keladi.*

Biroq so'z birikmalarining har bir komponenti gapda doim alohida bo'lak vazifasida kelavermasdan, ba'zan, so'z birikmasi yaxlitligicha bitta bo'lak bo'lib keladi. Masalan, *Bu kishi Arslonbekning akasining o'g'li. Militsiyamiz – qonunbuzarlar dushmani* gaplaridagi Arslonbek akaning o'g'li, qonunbuzarlar dushmani i birikmalari gapning bitta ajralmas bo'lagi bo'lib, kesim vazifasida kelgan. Yoki *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ko'ngil xazinasining guli – til* (Navoiy) gaplarining egasi so'z birikmasi bilan ifodalangan.

Demak, murakkab bo'lak so'z birikmasi bilan ifodalanadi.

Murakkab bo'lak vazifasida ko'pincha izofa xarakteridagi ajralmas birikmalar: qaratqichli aniqlovchili birikmalar, son+numerativ so'zlardan tuzilgan birikmalar, kesimi sifat, bor, yo'q so'zlari bilan ifodalangan «ega+kesim» modelidagi qo'shilmalar, sifatdosh va ravishdosh oborotlari, gapdan tashqarida erkin bo'lsa ham, gapda alohida bo'lak sifatida ajratish mumkin bo'lmagan so'z birikmalari kela oladi.

Masalan, *Yaxshining so'zi – qaymoq, yomonning so'zi – to'qmoq* (maqol)

Erning vaziri – xotin (maqol)

Dunyoning ishlari Ziyodulla o'ylagandan ancha mushkulroq bo'lib chiqdi.

Navoiy – g'azal mulkining sultoni (Shayxzoda)

Begona yurtda shoh bo'lgandan, o'z yurtida gado bo'lgan yaxshi (maqol)

Bo'laklar gapda vazifa bajarishi jihatidan bir xil emas. Ba'zi bo'laklar gapning mazmniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi, bularning qo'llanmasligi gap mazmunini, tuzilishini tubdan o'zgartirib yubormaydi. Ular gapda qo'llanmasa ham, o'zining gaplik holatini o'zgartirmaydi. Ba'zi bo'laklar esa, aksincha, gapda ishtirok etishi mutlaqo

zarurdir. Chunki bularsiz gapning o'zi maydonaga kelmaydi. Mana shu nuqtai nazardan bo'laklar ikki turga ajratiladi: bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar.

Gapning bosh bo'laklari gapning asosini – markazini tashkil qiladi, ular konstruktorlik xususiyatiga ega bo'lib, gapda boshqa bo'laklarni markazlashtiradi. Bosh bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklarsiz ham hukm ifodalaydi – kommunikativ funksiya bajaradi.

Demak, gap uchun zarur bo'lgan predikativlik tushunchasi bosh bo'laklar orqali ifodalanadi.

Predikativ aloqa (ega+kesim aloqasi) bayoni aloqa bo'lib, inkor va tasdiqni o'z ichiga oladi. Bular harakat, holat, belgi tushunchalarni voqelik va zamon bilan bog'laydi, so'zlovchining ana shu voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

Masalan, *Bola sho'x* gapida predmet va belgi tushunchalari qo'shilib, sho'xlik belgisining bolada mavjud ekanligi hukm yo'li bilan tasdiqlangan, voqelik hozirgi zamon bilan bog'langan.

Predmet va belgi munosabati so'z birikmalarida ham ifodalanadi. (sho'x bola, sayroqi qush kabi), biroq bundagi predmet va belgi tushunchalari bir butun murakkab tushuncha bo'lib, nominativ funksiya ifodalaydi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga bog'lanib, ularni mazmunan to'ldirib, belgi va holat jihatidan aniqlab keladi. Ana shu xususiyatidan kelib chiqib, ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol turlariga ajratilgan.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapda mustaqil qo'llana olmaydi, ular bosh bo'lakelargga bog'lana olgandagina, nutqda ishtirok etadi. Demak, ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligi bosh bo'laklar tufaylidir.

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning grammatik - semantik munosabati shuni ko'rsatadiki, ikkinchi darajali bo'laklar tobe, bosh bo'laklar hokim bo'laklardir.

Gapda ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarning biriga tobelanadi yoki ular o'zaro bir-biriga bog'lanib, so'ng bosh bo'lakka tobelanadi.

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat butunlik bo'lishiga qaramasdan, yaqin yillargacha, sintaktik tadqiqotlarda, asosan, gapning shakliy tomoniga e'tibor berilgan. Faqat ayrim o'rinlardagina (masalan, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini belgilashda, ikkinchi darajali bo'laklarning ichki tasnifida) mazmun tomoniga murojaat qilindi. Hozirgi kunda gap mazmunini o'rganuvchi mazmuniy sintaksis deyarli hamma tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, ammo mazmuniy sintaksis maqomi masalasiga bir xillik yo'q. Ular orasida ikki qarama-qarshi yo'nalish ajralib turadi.

Birinchi yo‘nalish tarafdorlari gapning zaruriy nsurlarining grammatik tomoniga asoslanadi.¹

Bu yo‘nalishga gapning har bir tuzilish tarxining mmiy grammatik tomonini topishga harakat qilinadi va tuzilish tarxining mmiy grammatik ma‘nosi doirasida mazmniy tuzilish aniqlanadi. Ularning fikriga ko‘ra, mazmn grammatik shakllanmay, o‘z holicha mavjd bo‘lmaydi. Shuning uchun gapning barcha sintaktik xssiyati gap mazmunining ifodachisi bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir gapda ma‘lum ob‘ektiv mazmun moddiy vositalar – sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu moddiy ifodalanish tomoni uning sintaktik tuzilishgi hisoblanadi.

Sintaktik tuzilish ham o‘zaro munosabatda bo‘lgan bir necha unsurlardan tashkil topgan bir butunlikdir.

Sintaktik tuzilishning unsurlari an‘anaviy tilshunoslikda g a p b o‘ l a k l a r i termini bilan nomlanadi. Lekin sintaktik tuzilish tarkibidagi barcha sintaktik shaklning tobe aloqaga kirishishi (o‘zaro deminatsiya munosabati) uning gap bo‘lagi hisoblanishining bosh mezoni sanaladi.

Gap bo‘lagi ma‘lum sintaktik shaklning shakliy sintagmatik munosabatdagi vaziyatiga qarab belgilanadi: ega vaziyati, kesim vaziyati, to‘ldiruvchi vaziyati va boshqalar. Natijada ayrim mazmuniy munosabatda bo‘lgan lekin bu mazmuniy munosabat shakliy jihatdan tobe munosabat (aloqa) orqali emas, balki undash va kirish munosabatlar orqali ifodalangan birliklar sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi. Bu esa butunni bo‘laklarga bo‘lish asosida zid keladi. Chunki butun bo‘laklarga ma‘lum asosda shunday bo‘linishi kerakki, butunning birorta unsuri bo‘linishdan tashqari qolmasligi kerak.

Gap bo‘laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to‘la qamrab olmas ekan, demak, gapni bo‘laklarga gap bo‘laklari rubrikasi ostida ajratish yetarli asosga ega emas. Shuning uchun ham tilshunoslikda bu masala ham eng munozarali masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.¹

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilishi jihatidan uning ziddiyatini hisobga olgan holda quyidagicha sintaktik shakllarga bo‘lish mumkin:

- 1) sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar;
- 2) sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar;

Bularning birinchi guruhi an‘anaviy gap bo‘laklari hisoblanadi.

So‘zlovchining biror fakt, voqea-hodisa to‘g‘risida xabar berishi yoki ma‘lum predmetda muayyan belgining mavjudligini tasdiq yo inkor qilishini ifodalaydigan gap darak rap deyiladi. Masalan, *Manzura yigitlarning kizg‘in suxbatiga quloq soldi.*

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. Тошкент, 1995.

¹ Абдурахмонов Ғ.ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). Тошкент, 1979.

So'zlovchining o'ziga noma'lum bo'lgan biror voqeani suhbatdoshdan bilib olish istagini, zaruriyatini ifodalovchi gap s o' r o q gap deyiladi.

Buyurish, iltimos, taklif, xohish, o'git-nasihat, xitob, ogohlantirish kabi har xil ifoda ottenkalarini ifodalovchi gap buyruq gap deyiladi.

Buyruq gaplar suhbatdoshni biror ish-harakatni bajarishga yoki undan voz kechishga da'vat qiladi: *Jangga kirdingmi qo'rquvni unut. O'limni emas, o'ldirishni o'yla.*

Daraq so'roq , buyruq gaplar kuchli intonatsiya bilan talaffuz qilinishi va bu intonatsiyada so'zlovchining his-hayajoni, ruhiy kechinmalari o'z ifodasini topishi mumkin. Emotsional qimmat kasb etgan bunday gaplar undov gap deb ataladi. Masalan, *Sidiqjonning bu vajohati Zunnunxo'janing o'yini puchga chiqardi... shuning uchun Sidiqjondan baland kelishga tirishib, jahl bilan — Yana nima kerak?!— dedi. — Yana nimam bor?! — Kirmaysiz xonaga! — Kiraman! — Kirmaysiz! — Kiraman!— Axmoq — Ahmoq bo'lmaganimda, shu ahvolga tu-sharmidim?!*

Predmetda biror belgining mavjudligini yoki biror ish-harakatning yuzaga kelganligini, yuzaga kelishi mumkinligini anglatadigan gap tasdiq gap deyiladi: — *Odamlar bundan ming yil ilgari xam quyosh nuridan foydalanishni bilganlar.*

Inkor gap predmetda biror belgining mavjud emasligini yoki biror ish-harakatning sodir bulmaganligini, sodir bo'lishi mo'ljallanmaganligini anglatadi. Inkor gap inkor anglatadigan vositalar yordamida shakllanadi:

Undov gaplarda inkor va tasdiq kuchli emotsiya bilan ifodalanadi. Gap grammatik jihatdan tasdiq formasida bulsa ham, logik jihatdan undov-inkor gap ekanligi anglashilib turadi: *Nahotki yerimiz chappa aylanib, nahotki daryolar oqar teskari!*

Aniqllovchining turlari

Aniqllovchi predmetning belgisini, sifatini, miqdorini, xususiyatini, qarashlilikini anglatuvchi ikkinchi darajali bo‘lak niqllovchi deyiladi. Aniqllovchi ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan har qanday bo‘laklarga bog‘lanib keladi:

Moviy osmonda kul rang bulutlar sayr qilishmoqda.

Qizg‘in, sokin havoda birin-ketin mardona tovushlar yangrab ketdi. Bizning halol mehnatimiz sevikli Vatanimizni bog‘-bo‘stonlarga aylantirsin.

Aniqllovchi bog‘lanib kelgan so‘z aniqlanmish deyiladi. Demak, aniqlanmish belgisi aniqlanadigan predmet.

Aniqllovchilar anglatgan ma’nolariga ko‘ra ikki xil; sifatlovchi aniqllovchi, qaratqichli aniqllovchi. Sifatlovchi aniqllovchilar aniqlanmishga bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi va u predmetning xilma-xil belgilarini rangi, xususiyati, mazasi, ta‘mi, Hndn, xarakteri, hajm-shakli, miqdori, tartibi, turi, jinsi kabilarni, shuningdek, biror payg yoki o‘ring‘a mansubligini bildiradi. Anglatgan ma’nolariga muvofiq, qanday?, q a n a q a?, q a y s i?, nechta?, nechanchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi: *Orombaxsh, tiniq va salqin xavo erkanib olamni muattar qiladi. Quyosh, toza havo, keng, tiniq zangori osmon ko‘zlarni beixtiyor tortadi.*

Sifatlovchi aniqllovchi qulaylik uchun ba‘zan «sifatlovchi», bog‘lanib kelgan aniqlanmish esa sifatlanmish *deb* ham yuritiladi.

Sifatlovchilar quyidagi so‘zlar bilan ifodalanadi:

Sifatlar bilan: Bunday aniqllovchi predmet belgilarini turli jihatdan xarakterlashga xizmat qiladi: *Saltanatning oppots, keng peshanasi, bejirim, qirra burni, oppoq iyangida nafis bir qizillik ko‘rindi.*

Sifatlar bilan ifodalangan sifatlovchilar asosan quyidagicha: a) chog‘ishtirma va intensiv sifatlar bilan: *Qimsasiz bo‘m-bo‘sh uylar ichida qop-qora tun havosi notanch kezar va uvillardi.*

b) kichraytirish, erkalash affikslari qo‘shilgan sifatlovchilar bilan *Qiz o‘n yetti-o‘n sakkizga kirgan, o‘rta bo‘yli, bir qadar keng va qoramtir yuzli, to‘lagina, lo‘ppigina qiz edi.*

Sifat bilan ifodalangan aniqllovchilar takrorlanib qo‘llanganda, belgi ma‘nosi ta‘kidlanadi va kuchaytiriladi: *Go‘zal qizning uzun-uzun barmoqlarida tilla uzuklari o‘ziga juda yarashgan.*

v) antonimik munosabatdagi juft sifatlar bilan: *Meh-ri bo‘lsa dadasiga rahmi kelgani uchun achchits-chuchuk so‘zlarni ham kechirardi. Katta-kichik yo‘llarning hammasi qum bilan ko‘milgan edi.*

g) nisbiy sifatlar bilan: Bu holda ifodalangan sifatlovchi predmet belgisini o‘rin va paytga nisbat berish orqali ko‘rsatadi: *Dalada kuzgi bug‘doy unib chiqqan payt edi.*

2. Otlar bilan: *Bunda aniqlovchi aniqlanmish predmetning materiali: nimaga xosligi; nimaga o'xshashligi, turi, jinsi kabilarni ko'rsatadi: Qamchat telpak, barxit va shoyi choponlar kiygan ko'p yigit-qiz to'plangan. Singlim Qumrining cho'lpon ko'zlari esingizga tushdimi? Ishchilarning temir, po'lat qo'llari eng yuksak tog'larning bag'rini yoradi.*

Takroriy otlar bilan ifodalangan aniqlovchilar aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, aniqlanmish predmetning miqdor jihatdan ortiq ekanligini anglatadi: *Go'ng ostidan sandiq-sandits qimmatli mollar, toy-toy gazlamalar va boshqa qimmatli narsalar chiqqan boshlagan. Har yerda uyum-uyum paxta chaqnaydi.*

Aniqlik, majhul nisbat va barcha zamon formalari bilan shakllangan sifat-dosh bilan: *Bu ko'rilmagan qiziq ishlar soddadil Xolmurodga ajoyib zavq beradi, Botayotgan quyoshning so'nggi nurlari azim chinorlarning uchida jslvalanib o'ynardi. Tevarak-atrofni ezilgan uzum shirasining hidi bosgan. Ba'zan sifat-dosh o'ziga tobe so'zlar bilan sifat-dosh oborotni hosil qiladi. Sifat-dosh oborot yaxlitligicha aniqlovchi hisoblanadi: Oy shu'lasi tushib turgan binolar zarrin tusda oqarib ko'rinadi. Yangi uyg'ongan yam-yashil bargchalar bilan yasangan daraxtlar quyosh nurida cho'miladi.*

4. Sanoq va tartib sonlar bilan. Bu holda aniqlovchi predmetning sanog'ini, sanash tartibini yoki taxminiy miqdorini ko'rsatadi: *Bu gilyohlar mingta kasalga davo. Ikkinchi darsda Zoxidov hisobdan dars berdi.*

5. Olmoshlar bilan. Bunda olmoshlarning ma'no turlariga ko'ra aniqlovchilar predmetlarni konkretlashtirib, umumlashtirib, makon, payt va boshqa jihatlardan aniqlab keladi: *Mana bu o'rtog'im - doktor. Bu kishining fe'li-atvori menga juda yoqib tushdi.*

6. -cha, -day, -dek qo'shimchalari vositasi bilan yasalgan ravishlar; kabi, singari ko'makchili otlar bilan. Bu holda aniqlovchi predmet belgisini o'xshatish yo'li bilan ko'rsatadi: *Dushmanning hujumi shiddatli bo'ladi. Qat'iyat va temirdek iroda bilan qarshi turingiz.*

7. Taqlidiy so'zlar bilan. Bunda aniqlanmishning xususiyati taqlidiy yo'l bilan bildiriladi. Masalan, *Dupur-dupur tuyuq tovushlari bilan ko'cha to'ldi. Aravalarning qaldir kuldur ovozlari eshitiladi. Uyda qah-qah kulgi aralash g'ovur-g'uvur ovozlari eshitiladi.*

8. Kerak, zarur kabi predikativ-modal so'zlar bilan. Bu holda aniqlovchi predmetning belgisini uning qiymati, unga bo'lgan ehtiyoj nuqtai nazaridan bildiradi: *Zarur ishlar bitgach, ona choy qaynatishga buyurdi. Kerakli joylar bilan gaplashib qo'ydi.*

Qaratqichli aniqlovchi. Predmetning qarashlilikini ko'rsatuvchi aniqlovchi qaratqichli aniqlovchi deyiladi. Qaratqich vazifasida qo'llanuvchi so'z qaratqich kelishigi formasida, qaralmish esa egalik formasida shakllanadi. Qaratqichli aniqlovchi kimning?, nimaning?, qaysi?, q a n d a y? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, *bulbulning ovozi, Navoiyning g'azali,*

tog'ning havosi, buloqning suvi, turnaning bolasi, chumchutsning pati birikmalarida birinchi komponentlar qaratqichli aniqlovchilar bo'lib, aniqlanishi lozim bo'lgan predmetlarning qaysi shaxsga qarashli ekanligini, o'ringa bo'lgan munosabatini, turini ko'rsatgan, natijada aniqlanmishning odatdagi ma'no doirasi toraygan.

Qaratqichli aniqlovchilar grammatik va semantik shakllanishi jihatidan ikki turga ajraladi: belgili aniqlovchilar qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan, belgisiz aniqlovchilar qaratqich kelishigi qo'shimchasini olmagan.

1. Belgili aniqlovchilar predmetning boshqa bir predmetga yoki shaxsga konkret qarashlilikini ta'kidlab ko'rsatish orqali ifodalaydi: *Artilgan, tozalagan sari semiz otlarning badanlari yarqiraydi. Qayrag'och teraklarning ildizi yer ostiga singgan.*

2. Belgisiz aniqlovchi predmetning umumiy qarashlilikini ifodalaydi: *ona mehri, shahar ko'chasi, tog' piyoz* kabi.

Anglashiladiki, qaratqichli aniqlovchining har ikkala turida ham predmet qarashlilik yo'li bilan aniqlanadi: *tog' havosi, tog'ning havosi* kabi.

Belgisiz aniqlovchilar sifatlovchi aniqlovchilarga ham yaqin turadi va aniqlanmishni jins, tur, xoslik nuqtai nazaridan aniqlaydi: *Dala yo'lining ikki tomonidagi bog'lar tutash gullar bilan qoplangan.*

Qaratqichli aniqlovchi alohida aniqlovchilar olib kelishi mumkin. Bunda predmet turli tomondan, yanada konkret aniqlanadi: *Chol, bu begona yigitning vaziyatida taraddudlanish sezib, qaytadan so'radi.*

Aniqlovchi ko'plikdagi birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari bilan ifodalaganda, aniqlanmish egalik qo'shimchasisiz ham shakllanishi mumkin: *Bizning yigitni ham, katta masofani piyoda bosgani uchunmi, kun xiyla betoqat qilgan edi.*

Qaratqichli aniqlovchi asosan aniqlanmishdan oldin keladi. Ayrim hollardagina, ayniqsa she'riyatda, aniqlanmishdan keyin kelishi mumkin: *Shodligim ko'kka sig'mas, bitmas baxtim bor mening.*

Qaratqichli birikmaning ifodalanishi quyidagicha:

1. Ikki elementi ham konkret predmet ma'nosidagi so'zlardan iborat birikmalar: *Supaning chetiga omonatgina o'tirib boshini quyi soldi*

2. Bosh komponent ravish, asliy sifat yoki sifatdoshdan yasalgan abstrakt ot, ergash komponenti otdan iborat birikmalar: *Bir to'p qizil olma mevasining mo'lligidan hovuzga engashib tushgan. Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagan.*

3. Aniqlovchi ot yoki olmosh bilan, aniqlanmish sifatdosh bilan ifodalangan birikmalar: *Mening kelayotganimni bir necha kishilar ko'rgan edi.*

4. Har ikkala. komponenti ham olmosh bilan ifodalangan birikmalar: *Biroq bizning hammamizni tashvishga solayotgaya boshqa bir jiddiy masala bor edi.*

5. Bosh gapi *hojat, kerak, zarur* singari modal soʻzlar bilan, ergash gapni ot, olmosh va harakat nomi bilan ifodalangan birikmalar: *Endi uni shaharga yuborishning hojati yoʻq.*

Aniqlovchilar tuzilishi jihatidan ikki xnl boʻladi: sodda aniqlovchi, murakkab aniqlovchi.

Sodda aniqlovchi quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi: a) ot bilan: *Mamlakatimizning hamma burchaklarida bayram tantanasi hukm suradi.* b) sifat bilan: *Ulugʻ jang kunidir* v) son bilan: *Yuzning yarmi — ellik.* g) olmosh bilan: *Hamma gullar meni olqishlar, hamma qushlar tinmay sayraydi.* d) ravish bilan: *Ertaning buguni bor, bugunning ertasi bor.* Koʻp gapning ozi yaxshi, oz soʻzning oʻzi yaxshi s) sifatdosh bilan: *Koʻrilajak masala ham nozik ekan.*

Murakkab aniqlovchilar quyidagi morfologik-sintaktik hodisalar bilan ifodalanadi:

1. Murakkab soʻzlar bilan: *Xona uchun ellikta ommabop kitob, yigirma beshta rasm olindi.*

2. Frazologik birikmalar bilan: *Ogʻzing qani desa, qulogʻini koʻrsatadigan Hayot bugun tashkilot rahbari.*

3. Izofa xarakteridagi qaratqichli birikmalar bilan: *yigʻilishga paxta maydonining terimchilari taklif etilgan.*

4. Bir umumiy qoʻshimcha vositasida boshqariladigan birikmalar bilan: *Barno toʻrt qavatli binoning yonida toʻxtadi. Yuz yillik kekxa qaragʻaylar oʻzaro shivirlasha ketdi.*

5. Hokim gapni ega shaklidagi soʻz tobe gapni sifat va sifatdoshdan iborat boʻlgan birikmalar bilan: *Sen oʻtqazib ketgan nihol oʻsib boʻyingday boʻldi.*

6. Hokim gap ega shaklidagi soʻz, tobe gapni bor va yoʻq soʻzlaridan iborat birikmalar bilan: *Aqli bor kishi hamisha masʼuliyatni his etadi.*

7. Hokim komponenti oʻlchov, miqdor, daraja yoki hajm bildiruvchi soʻzlardan, tobe gapni sanoq sondan iborat boʻlgan birikmalar bilan: *Hozirgacha biz bir ming bir yuz gektar paxta maydonini sifatli haydovdan chiqardik... Sakkiz ming bir yuz kilometr zovur qazidik birikmalar bilan ifodalanishini koʻrishimiz mumkin.*

Aniqllovchining gap strukturasiidagi ishtiroki

Gapdagi biror bo‘lakning ko‘pincha ega va to‘ldiruvchi, shuningdek qaratqich aniqllovchining belgisini yoki biror narsa-buyum, tushunchaning boshqasiga qarashlilikini bildiruvchi bo‘lak aniqllovchi deyiladi. Aniqllovchi vazifasini ko‘proq sifat, son, ot va otlashgan so‘zlar bajaradi. Aniqllovchi asosan ega va to‘ldiruvchiga bog‘lanadi. Yashil vodiylar ko‘zni quvontiradi (egaga bog‘lanayapti). Xalqimiz hamisha buyuk insonlarni ardoqlab kelmoqda. (To‘ldiruvchiga bog‘lanayapti).

Sifatlovchi-aniqllovchilar quyidagi so‘zlar orqali ifodaladi:

- sifat bilan: *Shakar qovunlarning xushbo‘y hidlari sabo bilan tarqalar sekin.*
- son bilan: *Do‘kondan ikki qop un oldik. Ukam uchinchi sinfda o‘qiya.*
- olmosh bilan: Ana shu katta bog‘ - bizniki.
- ot bilan: Oltin kuzni sevaman jondan.
- ravish bilan: Uzoq-yaqin yerdan mehmonlar kelib turishdi.
- taqlid so‘z bilan: Bog‘dagi g‘uj-g‘uj gullar ko‘zni qamashtiradi.

Sifatlovchi-aniqllovchilar yig‘iq va yoyiq bo‘lishi mumkin. Yig‘iq sifatlovchilar birgina so‘zdan Go‘zal bahor keldi, yoyiq sifatlovchilar esa ikki yoki undan ortiq so‘zlardan Misdek qizib turgan yuzini ikki kafti orasiga oldi iborat bo‘ladi.

b) qaratqich aniqllovchilar Yaxshining yuzi jannatdur, ani ko‘rmoq g‘animatdur.

Maktabning keng kutubxonasi belgisi qo‘llaniladi. Yer kurasin boshin tang‘idik.

Qaratqich va qaralmish shaxs jihatidan doim moslashadi, ammo son jihatidan moslashishi ham, moslashmasligi ham mumkin: Ukamning o‘yinchog‘i ko‘p. Ukamning o‘yinchoqlari ko‘p.

Aniqllovchi so‘z yoki so‘zlar birikmasi orqali ifodalangan aniqlanmishga bog‘lanadi. Yolg‘iz so‘z bilan ifodalangan aniqlanmish o‘zakdan yoki hozirgi tartibda sintaktik aloqa ko‘zda tutilmaydigan element (belbog‘, Qoryog‘di kabi)lardan iborat bo‘ladi. Uni aniqllovchining har ikki turi aniqlashi mumkin. Misollar: Men ham jimjit ko‘chada yolg‘iz bormoqdaman. Ombor tomonda qorovulning toqisi taqilladi.

Birikma aniqlanmish bir otning o‘z aniqllovchisi bilan birikuvidan tarkib topadi. Bunday tarkibdagi aniqlanmish otga ma‘lum aniqllovchi bog‘lanib, bu aniqllovchili birikma undan oldingi aniqllovchiga nisbatan aniqlanmish vazifasini o‘taydi oq sadaf tugmali kabi. Birikma

aniqlanmishning komponentlari, ma'no o'zaro yaqin bog'lanishli bo'lganligi uchun, ular biriktiruvchi intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Bunday aniqlovchili birikmaga bog'langan boshqa bir aniqlovchi ajratib aytilgan intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Masalan, O'zbekistonning katta g'alla xirmoni uchun...

Iboralardagi so'zlarning sintaktik munosabatlari quyidagichadir: katta g'alla xirmoni tarkibidagi sintaktik aloqalar haqidagi izoh ham xuddi ana shundaydir.

Aniqlovchili birikmaga bog'langan aniqlovchilar sifatlovchi yoki qaratqich bo'lishi mumkin.

1. Sifatlovchili aniqlovchili birikma aniqlanmishlar: Haligi tushkun kayfiyat, oqshomgi voqealar hozirgina ko'ringan tushday yo'qoldi. So'lim Parkent qishlog'i. Saidiy bahorgacha ko'p yangi kulfatlar orttirdi... Umrzoq ota shoshib-pishib uyga kirdi-da, guldor chinni choynakka bir chimdim ko'k choy solib, samovar oldida, cho'kkalab choy damladi. Pidjagining tagidan kiyilgan oq sadaf tugmali rangdor katak ko'ylak arzon kostyumga juda mos kelgan

Qaratqich aniqlovchili birikma aniqlanmishlar: Men, erim – ikkimiz shahrimizning markaziy ko'chalaridan birida ketayotgandik. Ko'chaning ikkinchi boshida paranjili bir xotin ko'rindi. Olimjon o'zining harbiy kiyimlarini shunday ozoda tutar ediki, hamma kiyimlaridan shunisini ortiq ko'rgani sezilib turardi.

Aniqlovchilar bir necha so'z birikmasidan ham tashkil topadi: Shirvonning yo'li uch kunlik yo'l, ikki orasi suvsiz cho'l, uyog'i dushman el. Ba'zi do'konlarda yerdan shipga qadar qalangan mollar orasida o'n ikki –o'n uch yashar jajji bolalar o'tiradi, savdo qiladi, cho't qoqadi. Eshik bo'sag'asida qizil ko'ylakli, qora kamzulli bir qiz uning harakatini taqib qilib turmoqda edi.

XULOSA

Har qanday gap shakliy va mazmuniy tuzilishidan tarkib topadi. Gap ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq, istak, tasdiq, inkor, taqlid gaplarga bo'linsa, gapni moddiy tomondan tashkil etuvchi elementlari sintaktik shakllar ikki xildir:

1. Sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar.
2. Sintaktik aloqaga kirishmaydigan shakllar.

Sintaktik aloqaga kirishdigan shakllar gap bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'laklari ham ikkiga:

1. Birinchi darajali bo'laklar.
2. Ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Birinchi darajali bo'laklar ega-kesim bo'lsa, ikkinchi darajali bo'laklarga aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kiradi.

Demak, aniqlovchi ikkinchi darajali bo'lak bo'lib, predmetning sifatini, miqdorini, xususiyatini, qarashlilikini anglatuvchi bo'lakdir. Aniqlovchi ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchilar anglatgan ma'nolariga ko'ra uch xil sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi aniqlovchilarga bo'linar ekan.

ADABIYOTLAR

1. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., O‘qituvchi, 1989.
2. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., O‘qituvchi, 1961
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., O‘qituvchi, 1965
4. O‘zbek tili grammatikasi. G‘ulomov A. va boshqalar. T., O‘qituvchi, 1975
5. Abdurahmonov G. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., Fan, 1978
6. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2001- 2005- yillar.